

## YAPON TILINI O‘QITISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

assistent **A.I.Musayeva**

*O‘zbekiston davlat jaxon tillari universiteti*

*Annotatsiya. Ushbu maqolada yapon tilini o‘qitishda qo‘llanilayotgan zamonaviy usullar, ularning samaradorligi va pedagogik tamoyillari ko‘rib chiqiladi.*

*Kalit so‘zlar: Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, Onlayn platformalar, Mobil ilovalar, Multimedia vositalari, Madaniyatlararo ta‘lim, Yapon tili o‘qitish metodikasi.*

*Аннотация. В данной статье рассматриваются современные методы преподавания японского языка, их эффективность и педагогические принципы.*

*Ключевые слова: Информационно-коммуникационные технологии, онлайн-платформы, мобильные приложения, мультимедийные средства, межкультурное обучение, методика преподавания японского языка.*

*Annotation. This article examines modern methods of teaching Japanese, their effectiveness, and pedagogical principles.*

*Key words: information and communication technologies, online platforms, mobile applications, multimedia tools, intercultural education, Japanese language teaching methodology.*

Yapon tilini o‘qitishda eng samarali yondashuvlardan biri kommunikativ usul hisoblanadi. Ushbu usul talabalarga real hayotiy vaziyatlarda tilni qo‘llash imkoniyatini yaratib, ularning og‘zaki nutq ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, integrativ yondashuv til o‘rganishni boshqa fanlar bilan bog‘lash orqali til kompetensiyalarini oshirishga yordam beradi. Masalan, yapon tili va madaniyatining uyg‘un o‘rgatilishi talabalar uchun til muhitini yaxshiroq tushunishga imkon yaratadi.

Interfaol o‘qitish texnikalari ham yapon tilini o‘rgatishda samarali usullardan biri bo‘lib, talabalar va o‘qituvchilar o‘rtasidagi muloqotni faollashtiradi. Ushbu yondashuv muhokama, rolda o‘ynash, loyiha asosida o‘qitish va boshqa innovatsion metodlarni o‘z ichiga oladi. Interfaol usullar o‘quvchilarning mustaqil fikrlash va ijodiy yondashish qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Yuqorida sanab o‘tilgan madaniyatlararo ta‘lim bosqichlarini didaktik material bilan boyitish har bir oliy o‘quv yurtida yapon tilini o‘qituvchi o‘qituvchilarning bevosita vazifasi hisoblanadi.

Bugungi kunda yapon tili o‘qituvchilari oldida qanday global vazifalar va maqsadlar turibdi?. Qanday qilib mazmunli va qiziqarli dars o‘tish hamda o‘qituvchiga yuklatilgan muhim missiyani to‘liq bajarish mumkin?

Birinchi navbatda, dars rejasini tuzish zarur, u quyidagi sakkiz asosiy jihatni o‘z ichiga olishi lozim:

1. Talabalarning xususiyatlari (bilim darajasi, tayyorgarlik va takrorlash imkoniyati, o‘yin shaklidagi darslarga munosabat, o‘rganilayotgan tilda gapirish istagi, Yaponiyaga borish rejalari);
2. Ta‘lim yo‘nalishi (masalan, universitetni bitirguncha talabalarning [Nihongo Nōryoku Shiken, 1] yapon tili bo‘yicha malaka imtihonining uchinchi darajasini topshirish niyati);
3. Tarkib (grammatika, leksika va boshqa bilimlar, shu jumladan murakkab jihatlar, ya‘ni alohida e‘tibor qaratish lozim bo‘lgan jihatlar);
4. O‘qitish metodikasi (darsning boshlanishida qanday material tushuntirilishi, suhbatga asoslangan mashqlar mavjudligi, dars faqat yapon tilida olib borilish-borilmasligi va hokazo);
5. Kurs maqsadlari va jadvali (mashg‘ulotlarning maqsadlari va ularga ajratilgan vaqt);
6. Talabalarni baholash (oraliq nazorat imtihonlari, yozma yakuniy sinov yoki testlar mavjudligi va h.k.);
7. O‘quv materiallari va jihozlar (asosiy va qo‘shimcha o‘quv materiallarini tanlash, auditoriyada audio va video uskunalar mavjudligi va boshqalar);
8. O‘qituvchi xususiyatlari (guruhda bitta yoki ikkita o‘qituvchi bo‘lishi, yapon tilini biluvchi mutaxassisning rus tilida gaplashuvchi o‘qituvchi bilan hamkorlik qilishi va boshqalar) [Nihongo Kyōjuhō Shirīzu, t. 1, 2015, s. [2].

Yuqorida ko‘rsatilgan jihatlarni nafaqat har bir dars rejasini tuzishda, balki butun o‘quv kursini shakllantirishda ham hisobga olish muhimdir. Quyida ushbu jihatlarning har biri batafsil ko‘rib chiqiladi.

Dars rejasini yoki butun kursni tuzish uchun avvalo o‘qituvchi o‘z oldida qanday auditoriya turganini tushunishi va baholashi lozim. Talabalar ikkita asosiy mezon bilan tavsiflanadi: tayyorgarlik va ehtiyoj. Tayyorgarlik deganda talabalar sharoiti va tajribasi ularning chet tilini o‘zlashtirish qobiliyatiga qay darajada ta‘sir qilishi tushuniladi. Ehtiyoj esa, ularning til o‘rganishga bo‘lgan istagi va zarurati bilan bog‘liqdir.

O‘qitish metodikasini tanlash jarayonida quyidagi jihatlar inobatga olinadi:

- Asosiy e‘tibor grammatika, leksika, eshitish yoki og‘zaki nutqqa qaratilganmi?
- Lingvistik bilimlardan tashqari, talabalar madaniyatshunoslik ma‘lumotlarini ham olishadimi?
- Og‘zaki chiqishlar vaqtida xatolar darhol tuzatiladimi?
- Talabalar darsdan tashqari qancha qo‘shimcha topshiriqlar bajarishlari kerak yoki asosiy bilimlar faqat dars davomida beriladimi?

Dars jarayonida o‘quvchilarning diqqatini jalb qilish, ularning til o‘rganishga bo‘lgan motivatsiyasini oshirish, shuningdek, har bir dars blokining va butun o‘quv qo‘llanmasining aniq maqsadlarini belgilash va ularga erishish asosiy vazifalardan biridir. Yapon tilini o‘qitishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish ham muhim rol o‘ynaydi.

**ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Mariko Matsuura, Akimi Fukuike, Maiko Kono, Kayo Yoshida. Nihongo Ondoku Toreningu (Yapon tilida ovoz chiqarib o‘qish mashqlari). Tokio: Asuku Shuppan, 2014. 175 b.
2. Nihongo Kyōjuhō Shirīzu (Yapon tilini o‘qitish metodikasi bo‘yicha kitoblar seriyasi). T.

